

“O‘zbekistonda ma‘muriy ish yuritishni takomillashtirishning ilmiy-amaliy muammolari” muhokamasi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq institutida “O‘zbekistonda ma‘muriy ish yuritishni takomillashtirishning ilmiy-amaliy muammolari” mavzusida respublika konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.



Tadbirda yetakchi mutaxassislar – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti direktori o‘rinbosari, professor A. Tulyaganov, Davlat va huquq instituti bosh ilmiy xodimi Jo‘rabek Ne‘matov, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi professori Erkin Xojiyev, Oliy sud katta maslahatchisi Shaxnoza Axatova, Sudyalar oliy maktabi “Ma‘muriy huquq” kafedrasida dotsenti Dilmurod Artikov, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti katta ilmiy xodimlari Yaroslav Kvitkov va Ravshan Nazarovlar ishtirok etdi.



Konferensiyadagi ma'ruzalarda O'zbekistonda ma'muriy sud ish yuritishning ilmiy va amaliy muammolari; ma'muriy sud ish yuritishning asosiy tamoyillari; sud amaliyoti tahlili; prokurorlarning ma'muriy sud ish yuritishda ishtirok etish xususiyatlari; ma'muriy sudlar uchun sudyalarni tayyorlash tizimini isloh qilish; ma'muriy javobgarlikni ta'minlashda ichki ishlar organlarining roli; ma'muriy sud ish yuritish sohasida xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va bu tajribani O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadbir onlayn tarzda ham ishtirok etganlar bo'ldi. Qoraqalpog'iston, Namangan Samarqand, Termiz davlat universitetlari yuridik fakultetlari dekanlari va boshqalar ham muhokamada faol qatnashdilar.